INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYALASHTIRISH VA MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Mamadaliyev Nuriddin Zuhriddin o`g`li
Andijon davlat Texnika instituti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi 4-bosqich talabasi,
nuriddinm1304@gmail.com;
Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi **Bo‘stonova Nilufar**

Annotatsiya: Maqolada byudjet tashkilotlarida mablag‘lardan unumli foydalanish va ularning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish masalalari ko`rib chiqilgan. Mavzuga oid mavjud muammolar ko`rilib, ularning sabablari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ichki moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish, ortiqcha yoki ishlatilmagan mablag‘larni qayta taqsimlash va byudjet sarflarini mustahkamlash bo‘yicha amaliy takliflar ko`rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: byudjet tashkilotlari, moliyalashtirish, maqsadli sarf, nazorat, samaradorlik, byudjet intizomi

Abstract: The article examines the issues of efficient use of funds in budget organizations and strengthening control over their targeted expenditure. The existing problems related to the topic are analyzed along with their causes and possible solutions. In addition, practical proposals for improving the internal financial control system, reallocating excess or unused funds, and enhancing budget expenditures are discussed. The research results contribute to increasing the efficiency of the use of state budget funds.

Keywords: budget organizations, financing, targeted expenditure, control, efficiency, budget discipline

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы эффективного использования средств в бюджетных организациях и усиления контроля за их целевым расходованием. Анализируются существующие проблемы, их причины и пути их устранения. Кроме того, обсуждаются практические предложения по совершенствованию системы внутреннего финансового контроля, перераспределению избыточных или неиспользованных средств и укреплению бюджетных расходов. Результаты исследования способствуют повышению эффективности использования средств государственного бюджета.

Ключевые слова: бюджетные организации, финансирование, целевое расходование, контроль, эффективность, бюджетная дисциплина

So‘nggi yillarda jahon mamlakatlari o‘rta muddatli istiqbolda fiskal siyosatni yanada izchil va samaraliroq qilish hamda xarajatlarning ta’sirini qisqartirish uchun keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. “Milliy daromadning ulushi sifatida ta’limni moliyalashtirish so‘nggi o‘n yil ichida hech bir mamlakat daromad guruhi uchun sezilarli darajada o‘zgarmadi. 2022-yilda yuqori daromadli mamlakatlar o‘z byudjetlarida ta’limga ustuvorlik berishni kuchaytirdilar. Ammo daromadi past bo‘lgan ko‘plab mamlakatlarda ta’lim o‘z o‘rnini yo‘qotdi”1. Byudjet tashkilotlarida mablag‘larni taqsimlashni optimallashtirish, nazorat qilish, firibgarlikka oid xavflarni kamaytirish, xarajatlarni tejash va jamoatchilik

1 https://www.worldbank.org/en/news/feature/2023/04/24/the-false-dichotomy-between-more-more-effective-public-spending-on-education-lessons-from-country-experiences;

ishonchini oshirishga oid muammolar sohani mukammalroq o‘rganish zaruratini oshirib bormoqda.

Xalqaro amaliyotda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish samaradorligini oshirishga oid bir qancha ilmiy izlanishlar yuritilib kelinyapti. Byudjet tashkilotlaridagi ichki nazorat tizimlarini o‘rganish, moliyaviy firibgarlik va qonunbuzarliklarning oldini olishda ularning samaradorligini baholash, moliyaviy nazorat modellarining qiyosiy tahlili, byudjet tashkilotlarida risklarni boshqarish strategiyalari, byudjet mablag‘larini taqsimlash va mablag‘larning ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirilishini ta’minlashda jamoatchilik ishtiroki, mablag‘lar nazoratini tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy-huquqiy bazani tahlil qilish hamda takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag‘larning ishlatilmay qolgan qismini moliya yili oxirida belgilangan tartibda Davlat byudjetiga qaytarish orqali byudjet taqchilligining oldini olish va muvozanatli byudjetni saqlash, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, byudjetni boshqarish shaffofligini oshirish, fiskal mas’uliyatga sodiqlikni ta’minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 419-son qarorida o‘z aksini topgan.

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida foydalanilmagan yoki ortiqcha rejalashtirilgan mablag‘larni qayta taqsimlash resurslardan foydalanishni optimallashtirish imkoni yaratilgan.

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat samaradorligini muntazam tekshiruv tadbirlari ustuvorligi ta’minlash imkonini beruvchi masofaviy (kameral) nazorat asosida takomillashtirish taklifi qaroriga ilova O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining barqarorligini ta’minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida byudjet mablag‘larining noqonuniy talon-taroj qilinishi va moliyaviy huquqbuzarliklarning oldi olish imkoni yaratilgan[2].

Yangi O‘zbekistonda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish va maqsadli xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning rahbarlari o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish, byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi, tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi”[3] kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag‘larning ishlatilmay qolgan qismini davlat byudjetiga qaytarish, oliy ta’lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag‘lari hajmini hisoblash metodikasini takomillashtirish, ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag‘larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun

2 Abduraxmanov K.A. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari to‘g‘risida. Biznes ekspert ilmiy jurnali. 2023. - № 5. - 18-21-b.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-471-son qaror;

qayta taqsimlash, byudjet tashkilotlarida nazorat tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida masofaviy nazorat takomillashtirish metodlari ko‘rib chiqiladi.

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlovchi institutsional mexanizmlar



O‘zbekiston sharoitida mablag‘lardan foydalanish va nazoratni kuchaytirish huquqiy, axloqiy, tashkiliy va nazorat nuqtayi nazarlarini o‘zida mujassam etgan yaxlit yondashuvni talab qiladi. Mamlakat iqtisodiy o‘sish, rivojlanish va samarali boshqaruvga intilayotgan bir paytda davlat moliyasini boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish eng muhim hisoblanadi4.

O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish bo‘yicha qonunchilik bazasi mustahkam va keng qamrovli bo‘lishi kerak. Aniq qonunlar, qoidalar va xalqaro standartlar mablag‘lardan foydalanish qonuniylik chegaralarida amalga oshirilishini ta’minlaydi. Moliyaviy operatsiyalarda shaffoflik, xalqaro shartnomalarga rioya qilish va korrupsiyaga qarshi choralarga muvofiqlik samarali huquqiy nazoratga yordam beradigan muhim jihatlardir.

Qonuniy muvofiqlikdan tashqari, axloqiy mulohazalar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hisobdorlik, shaffoflik va davlat mablag‘larini mas’uliyat bilan boshqarishga asoslangan axloqiy xulq-atvor hukumat va uning fuqarolari o‘rtasida ishonchni kuchaytirishi mumkin. Jamg‘armani taqsimlash, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va qarorlar qabul qilishda axloqiy tamoyillarga rioya qilish O‘zbekistonning jahon miqyosidagi obro‘-e’tiborini mustahkamlaydigan halollik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijasida muhim xulosa, taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

Davlat byudjetida xarajatlar so‘nggi 5 yil davomida muttassil o‘sib bormoqda. Ushbu muammolarning mavjudligi va ularning asosini aniqlashtirish kabi masalalar bor ekan, davlat byudjeti moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatish zarurati

4 Abduraxmanov K.A. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishiga ta’sir etuvchi omillar. “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali. 2023. -№ 3. - 341-347-b.

oshib boraveradi. Davlat byudjeti mablag‘larini doimiy ravishda nazoratini amalga oshirmas, byudjet xarajatlarining samarali yoki samarasiz ahamiyatini aniqlashtirmas ekanmiz mablag‘larni maqsadli sarflanishi samaradorligi ko‘rsatkichlarini aniqlashtira olmaymiz.

Byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag‘larning ishlatilmay qolgan qismi moliya yili oxirida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qaytarilishini ta’minlash.

Hozirgi sharoitda oliy ta’lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag‘larini aniq hisoblash metodikasini ishlab chiqish eng muhim masalaga aylandi. Ushbu muassasalarga byudjetdan ajratmalarni hisoblashning alohida metodikasi taklif etilgan. Mablag‘larning maqsadli sarflanishi nuqtayi nazaridan, byudjet tashkilotlari tomonidan ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag‘larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash.

Byudjet tashkilotlarida byudjet mablag‘larini samarali sarflanishini nazorat qilish masalasi juda dolzarb ekanligi ayonlashmoqda. Shularni inobatga olgan holda, muntazam tekshiruv tadbirlari afzal ekanligi ayonlashmoqda. Tekshiruvlarini doimiy tashkilotga borib emas, balki byudjet tashkilotlarida nazorat tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida masofaviy (kameral) nazoratni takomillashtirish lozim bo‘ladi. O‘zbekistonning mablag‘lardan optimal foydalanish va nazorat qilish yo‘lidagi yo‘li qonunchilik asoslari, axloqiy mulohazalar, tashkiliy tuzilmalar va nazorat mexanizmlarini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi5. Oshkoralikni qo‘llash, axloqiy me’yorlarga rioya qilish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish va qat’iy nazorat choralarini amalga oshirish orqali O‘zbekiston davlat moliyasini boshqarishni kuchaytirishi, iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirishi va mas’uliyatli boshqaruv uchun mustahkam poydevor yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.worldbank.org/en/news/feature/2023/04/24/the-false-dichotomy-between-more-more-effective-public-spending-on-education-lessons-from-country-experiences;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-471-son qaror;
3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori;
4. Abduraxmanov K.A. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari to‘g‘risida. Biznes ekspert ilmiy jurnali. 2023. - № 5. - 18-21-b.
5. Abduraxmanov K.A. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishiga ta’sir etuvchi omillar. “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali. 2023. -№ 3. - 341-347-b.
6. Tursunov A.B. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish masalalari. “Iqtisodiy tahlil” ilmiy jurnali. 2022. – № 4. – 112–118-b.
7. Rahimova N.M. Byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.

5 Abduraxmanov K.A. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishiga ta’sir etuvchi omillar. “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali. 2023. -№ 3. - 341-347-b.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

"Moliyaviy fanlar axborotnomasi" ilmiy jurnali. 2023. – № 2. – 56–60-b.
8. Karimov B.E. Davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirish va ularning samaradorligini oshirish yo'llari. "Bozor, moliya va iqtisodiyot" ilmiy jurnali. 2022. – № 6. – 89–94-b.
9. Nazarova D.Sh. Byudjet tashkilotlarida hisob va hisobot yuritishning zamonaviy yondashuvlari. "Moliyaviy menejment" ilmiy jurnali. 2023. – № 1. – 73–77-b.